



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 13-fevral, № 30 (9201)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



SUD HOKIMIYATINI KORRUPSIYADAN XOLI TIZIMGA AYLANTIRISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-fevral kuni Sudyalar oliy kengashi raisining axboroti bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida kengash raisi odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va sud tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishning holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yil yakunlari bo'yicha axborot taqdim etishi belgilangan.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korruptsiyaga yo'l qo'yish – islohotlarga xiyonat hisoblanishi ta'kidlanib, mamlakatimizda bu illatga qarshi kurashish bo'yicha joriy yilda "favqulodda holat" e'lon qilingan edi.

Shu sababli, sudlar davlat hokimiyatining alohida bo'g'ini sifatida "korruptsiyadan xoli" tizimga aylanishida namuna bo'lishi lozim.

Sud mustaqilligini ta'minlash, sudyalarni tashqi bosimlardan himoya qilish uchun Sudyalar oliy kengashi bevosita mas'ul hisoblanadi. 2025-yilda alohida farmon qabul qilinib, unga yangi vakolatlar berildi. Sud tizimi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida Kengash huzurida Odil sudlov akademiyasi tashkil etildi.

Sudyalar oliy kengashi tomonidan o'tgan yilda 135 nafar nomzod ilk bor sudyalik lavozimiga, 286 nafar sudya lavozimiga qayta tayinlandi, 241 nafardan iborat tergov vazifalari korpusi shakllantirildi.

Hisobot davrida 59 nafar sudyaning vakolatlari muddatidan ilgari tugatildi, jumladan, sudyalik qasamyodini buzganligi hamda Sudyalar odobi kodeksi talablariga rioya qilmaganligi uchun 19 nafar sudya lavozimidan ozod etildi, 3 nafar sudya jinoiy javobgarlikka tortildi, 58 nafar sudyaning lavozimlari pasaytirildi. Sudyalik vakolati muddati tugagan 33 nafar sudya navbatdagi sudyalik lavozimiga noloyiq deb topildi hamda 266 nafar sudya intizomiy javobgarlikka tortildi.

O'tgan yilda sud faoliyatiga aralashganlik holatlari bo'yicha Bosh prokuraturaga 5 ta taqdimnoma kiritildi. Kengashning rasmiy veb-saytida sudya daxlsizligi buzilganligi yuzasidan tezkor xabar yuborish imkonini yaratildi.

Sudyalar daxlsizligi va mustaqilligini ta'minlash doirasida hududiy sudlar raislari tomonidan chiqarilgan 6 mingdan ortiq buyruqlar o'rganilib, 231 ta buyruqga 314 nafar sudyaga nisbatan odil sudlov bilan bog'liq bo'lmagan vazifalar yuklatilgan aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar ko'rilgan.

Shu bois sudyani o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan ozod etish maqsadida sud apparati xodimlari bilan ishlash, moddiy-texnik ta'minot va barcha tashkiliy ishlarga mas'ul bo'ladigan "sud ma'murchiligi" institutini tashkil qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba o'rganiladi.

Sudyalar mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash borasida Sudyalar intizomiy hay'atini tashkil etish orqali sudyaga nisbatan intizomiy jazo qo'llashning xolis tartibini yaratish taklif qilindi.

Sudya va ularning oila a'zolari mol-mulkini deklaratsiya qilishni yo'lga qo'yish, sud apparati xodimlari orasida korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan kompleks nazorat tizimini joriy etish, sud apparati xodimlarini ishga olishning ochiq tartibini yaratish kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati doirasida sud tizimida ham gender tenglikni ta'minlash masalasi muhokama qilindi. Jumladan, yaqinlashib kelayotgan 10-mart – Xalqaro ayol sudyalari kunini nishonlash bo'yicha rejalar belgilab olindi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni qo'llab-quvvatlab, sud hokimiyati mustaqilligi, sudyalar daxlsizligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf qilish yo'nalishidagi tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish yuzasidan bir qator tavsiyalar berdi.

KREATIV IQTISODIYOT – MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyat muassasalari infratuzilmasini yaxshilash hamda yangi kreativ maydonlarni tashkil etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot ko'plab davlatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon yalpi ichki mahsulotining 3 – 7 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda 2024-yilda kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 3,7 foizni yoki 56,8 trillion so'mni tashkil etgan, eksport hajmi esa 770,6 million dollarga yetgan, sohada 319 ming nafardan ortiq aholi band.

Aholining 60 foizdan ortig'i yoshlar ekani, raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanayotgani hamda madaniy merosimiz boyligi ushbu sohada "katta sakrash" qilish uchun mustahkam zamin yaratayotgani ta'kidlandi.

Shu maqsadda 2024-yilda kreativ iqtisodiyot to'g'risida alohida qonun qabul qilinib, sohaning huquqiy asosi yaratilgan edi. Kreativ industriya parki ta'sis etilib, uning rezidentlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etildi. Jumladan, daromad soligi va ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Sohadagi tadbirkorlarga bir qator boshqa imtiyozlar ham berildi.

Mana shu chora-tadbirlar hisobiga 2030-yilga qadar kreativ iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini 5

foizga yoki 145 trillion so'mga yetkazish, eksportni 1 milliard dollarga olib chiqish, sohadagi band aholini 500 ming nafardan oshirish maqsad qilingan.

Taqdimotda Toshkent shahrida joylashadigan Kreativ industriya parkining konsepsiyasi ko'rib chiqildi. Unda yashil bog', art-obyektlar, xalqaro dasturlash tarmog'ining Toshkent maktabi, kitob kafesi, sport maydonlari, ijodiy pavilyonlar, kovorking markazi va ofislar, kino va video ishlab chiqarish maydonlari, ovoz yozish studiyasi, kreativ industriya kampusi hamda yoshlar va ijodkorlar uchun mehmonxona barpo etiladi. Loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Yangi Toshkent hududi va Nukus shahrida kreativ parklar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Yangi Toshkentda kreativ park rezidentlari uchun ijara maydonlari, studiyalar, media va anjuman zalari, tijorat va xizmat ko'rsatish obyektlari joylashtirilsa, Nukus shahrining Istiqbol bog'ida mavjud pavilyon rekonstruksiya qilinib, ko'p funksiyali jamoat-madaniyat markaziga aylantiriladi.

Nukusdagi kreativ park loyihasining e'tibori

ijhati shundaki, unda O'zbekistonning "EKSPLO – 2025"dagi milliy pavilyoni joylashtirildi va yonida zamonaviy kutubxona barpo etiladi.

Yurtimizdagi madaniyat markazlari faoliyati tanqidiy tahlil qilindi.

Respublikadagi 800 dan ortiq madaniyat markazlarining yarmidan ko'pi ta'mirlalab holatda ekani qayd etildi. Aksariyat madaniyat markazlari haligacha eskicha ishlayotgani, asosan, bayram tadbirlarini o'tkazish bilan cheklanib qolgani ko'rsatib o'tildi.

Shu bois madaniyat markazlarini zamonaviy andoza asosida rivojlantirish bo'yicha pilot loyiha ishlab chiqilgan. Loyiha Toshkent, Qo'qon, Buxoro va Samarqanddagi 4 ta markazni qamrab olgan bo'lib, birinchisi Toshkent shahridagi "Gulshan" madaniyat markazi negizida tashkil etilmoqda. Unda "madaniyat – ta'lim – hordiq – muloqot" janri asosida turli yo'nalishlardagi klublar, ustaxonalar, studiyalar va to'garaklar tashkil etiladi.

Taqdimotda Buyuk Britaniya Qirollik jamg'armasi maktabi tajribasi asosida Toshkent shahrida

An'anaviy san'at oliy maktabini tashkil etish rejalarini ham ko'rib chiqildi.

Ushbu oliy maktab kulolchilik va g'isht terish, manzarali bezak, yog'och o'ymakorligi, arxitekturaviy xattotlik, geometrik va biomorf naqsh yo'nalishlarida bakalavriat va magistratura dasturlarini amalga oshiradi. Ta'lim ingliz tilida olib boriladi, ikki yillik dastur asosida mutaxassislar tayyorlanadi. 2027-yilda 50 nafar mutaxassis tayyorlash, 2031-yilga borib yiliga 80 nafar kadr quvvatiga chiqish rejalashtirilgan.

Shuningdek, taqdimotda Milliy restavratsiya institutini tashkil qilish, Samarqand shahridagi Bibixonim masjidi restavratsiya qilish, "Turkiston" yozgi amfiteatri ta'mirlash loyihalari ko'rib chiqildi. Loyihalashtirish va restavratsiya ishlarini YUNESKO bilan to'liq kelishilgan holda bajarish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat madaniy, balki iqtisodiy jihatdan strategik muhim ekanini ta'kidlab, belgilangan loyihalarning ijrosini sifatlil ta'minlashga ko'rsatma berdi.

TEXNIK TARTIBGA SOLISH SOHASI XALQARO TALABLAR ASOSIDA TUBDAN YANGILANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev texnik tartibga solish sohasini xalqaro talablar asosida tubdan yangilash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, so'nggi to'tr yilda milliy standartlarning yarmi xalqaro talablarga to'liq uyg'unlashtirildi. Mamlakatimiz akkreditatsiya tizimi 185 ta davlat asosida 29-o'rinni egalladi. Milliy laboratoriyalar natijalari Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi 37 ta davlat tomonidan tan olina boshlandi.

Shu bilan birga, xavf darajasi yuqori bo'lgan 156 ta tovar pozitsiyasini majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazish bekor qilindi. Majburiy sertifikatdan o'tadigan tovarlar pozitsiyasi 27 foizga qisqardi.

Bu tufayli sohada adolatli raqobat muhiti shakllangan, o'rtiqcha ovoragarchilik kamayganini tadbirkorlarning o'zi ham tan olmoqda.

Shu bilan birga, sohada hali yechimini kutayotgan masalalar ko'pligi ta'kidlandi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida, birinchi navbatda, texnik tartibga solish tizimi to'liq xalqaro talablarga mos bo'lishi shartligi qayd etildi.

Avvalo, mahsulotni baholashda korxona faoliyatini tekshirish amaliyoti tadbirkorlar noroziligiga sabab bo'layotgani ko'rsatib o'tildi. Amaldagi tartibga ko'ra, talabga javob bermaydigan mahsulot aniqlanganda, uning aylanmasi emas, uni ishlab chiqargan tadbirkorning faoliyati cheklanmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasida xavf-tahlilga asoslangan bozor nazorati tizimi amal qiladi. Bunda ishlab chiqaruvchi mahsulot muvofiqligini deklaratsiyalash orqali barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, sifat va xavfsizlikni kafolatlaydi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda davlat nazoratidan bosqichma-bosqich voz kechilib, bozor nazorati tamoyillariga o'tiladi. Buning uchun "Bozor nazorati to'g'risida" alohida qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Eskirgan standartlar va samarasiz texnik reglamentlardan voz kechish va to'liq xalqaro standartlarga o'tish zarurligi qayd etildi. Hozirda 33 mingdan ortiq standartlar mavjud bo'lib, ularning 50 foizi eskirgan yoki xalqaro talablarga mos emas.

Shu bois 6 ta texnik reglament bekor qilinadi, 29 tasi qayta ko'rib chiqiladi. Joriy yilda 4 ming 460 ta, kelgusi yilda 2,5 mingdan ziyod, 2028-yilda esa 817 ta xalqaro standartni qabul qilish maqsad qilingan.

2026-yil 1-iyuldan o'qimachilik, charm, mebel, elektrotexnika, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, 2027-yildan boshlab neft-gaz, metallurgiya, transport, qurilish mahsulotlari, tibbiy buyumlar, 2028-yildan boshlab esa energetika, kimyo, ekologiya va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni to'liq xalqaro standartlar asosida tashkil etish rejalarini ma'lum qilindi.

Sertifikatsiya jarayonini yanada soddalashtirish zarurligi qayd etildi. Hozirgi murakkab tizim tannarx asossiz oshishiga, byurokratiya va korruptsiyaga sharoit yaratayotgani ko'rsatib o'tildi. Xavf-tahlil asosida baholash tizimi joriy etilib, qolgan tovar pozitsiyalari bo'yicha ham majburiy sertifikatlashni bekor qilish va bosqichma-bosqich deklaratsiyalashga o'tkazish taklif qilindi.

Umuman, "Mahsulotning umumiy xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qilish maqsadga muvofiq ekani ta'kidlandi.

Sohada institutsional o'zgarishlar amalga oshiriladi. Texnik tartibga solish agentligi tarkibidagi tashkilotlar – "O'test" markazini tugatish va Akkreditatsiya markazini Vazirlar Mahkamasi bo'yisunuviga o'tkazish orqali 5 tadan 3 taga qisqartirilishi belgilandi.

Sinov va sertifikatlash xizmatlarini to'liq xususiy sektorga berish taklif qilindi. Ayni paytda xususiy sektorda barcha sohalarni qamrab olgan 207 ta sinov laboratoriyasi va 73 ta sertifikatlash idorasi faoliyat yuritmoqda. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida Angliyaning "Intertek", Shveysariyaning "SGS" Fransiyaning "Bureau Veritas", Germaniyaning "TUV" kabi yetakchi xalqaro kompaniyalari jalb qilindi.

Taqdimotda "SUZ" milliy muvofiqlik belgisini joriy etish, akkreditatsiya organining mustaqilligini ta'minlash, sinov laboratoriyalari faoliyatini raqamlashtirish, metrologiya tizimini isloh qilish hamda etalon bazasini kengaytirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan taklif va tashabbuslar yuzasidan tadbirkorlarning fikr-muhazalarini tinglagi hamda yangi tizimni joriy qilish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

ANDIJON VILOYATINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI BOSH MEZON BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va 2026-yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilish avvalida qayd etilganidek, Andijon – aholisi eng zich joylashgan hudud. Viloyatda 3,5 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi, har yili 80 mingga yaqin tug'ilish qayd etilmoqda.

Yer resurslari cheklangan sharoitda har bir gektar yer, har bir loyiha hamda har bir investitsiya yuqori qo'shilgan qiymat va barqaror ish o'rni yaratishi shartligi ta'kidlandi. Bu viloyat rahbariyati oldidagi eng asosiy vazifa ekani ko'rsatib o'tildi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot 107,7 trillion so'mni tashkil etib, 6,8 foizga oshdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 7,2 foiz, xizmatlar hajmida 15,1 foiz, qishloq xo'jaligida 4,7 foiz o'sish qayd etildi.

Joriy yilda iqtisodiyot va sanoatni 8 foizga, xizmatlarni 16,3 foizga, qishloq xo'jaligini 5,9 foizga oshirish maqsad qilingan. Xorijiy investitsiyalarni 2025-yildagi 2,5 milliard dollardan 2026-yilda 3,5 milliard dollarga, eksportni 1,3 milliard dollardan 1,5 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

2025-yilda 383 ming aholining bandligi ta'minlangan bo'lsa, 2026-yilda 489,5 ming aholining bandligini ta'minlash, ishsizlikni 3,6 foizga, kambag'allikni 2,4 foizga tushirish muhimligi ta'kidlandi.

Asaka, Oltinko'l, Xo'jaobod, Shahrixon tumanlari hamda Andijon shahrini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududlarga aylantirish vazifasi qo'yildi. "Og'ir" toifadagi Bo'ston, Paxtaobod va Ulug'nor tumanlarida kambag'allikni kamida ikki barobar qisqartirish belgilandi.

Joriy yilda viloyatda 798 million dollarlik loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgani ta'kidlandi.

Jumladan, Asaka, Buloqboshi va Shahrixon tumanlarida chardam-poyabzal, qurilish materiallari hamda dastgohlar ishlab chiqarishga

ixtisoslashtirilgan 3 ta mikrosanoat markazi tashkil etiladi. 110 ta qishloq hamda 26 ta chegaraoqli va olis mahallalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kichik sovitkichli omborlar tashkil qilish va mikrosanoat loyihalari amalga oshiriladi.

Andijon tumanidagi "Ipak yo'li" erkin iqtisodiy zonasida 100 gektardan ortiq yer maydoni bo'sh turibdi. Yer resurslari cheklangan sharoitda tayyor infratuzilmasi bor maydonlarda yuqori qo'shilgan qiymatli loyihalarni joylashtirish, minglab ish o'rinlarini yaratish imkoniyatidan to'liq foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yilda paxtachilikda hosildorlikni oshirish maqsadida xorijiy navlar joylashtiriladigan va ilg'or "76x10" sxemasi asosida ekiladigan paxta maydonlarini kengaytirish, 472 dona yangi texnika xarid qilish rejalashtirilgan. 2 ming gektar kam samarali eski bog'lar intensiv bog'larga aylantiriladi, 6,8 ming gektar yer foydalanishga qayta kiritiladi.

Yangi tajriba sifatida Oltinko'l'da gulchilik, Izboskanda ko'chatchilik, Asakada issiqxonachilik, Qo'rg'ontepada sabzavotchilik, Buloqboshida uzumchilik bo'yicha tomorqa maktablari tashkil etiladi.

2025-yilda viloyatga 460 ming xorijiy va 1,8 million mahalliy turist kelgan. Joriy yilda xorijiy turistlar sonini 700 mingga, mahalliy sayyohlarni esa 2,5 millionga yetkazish maqsad qilingan.

Shu maqsadda Buloqboshidagi "Shirmonbuloq", Xo'jaoboddagi "Imom ota" va Xonoboddagi turizm markazlarini rivojlantirish uchun alohida direksiya ochildi. Tuman va shahar markazlaridagi 91

ta mahallani bog'lovchi gavjum ko'chalarda savdo, dam olish va ko'ngilochar maskanlar barpo etiladi.

Andijonda uy-joy masalasi boshqa hududlarga nisbatan ancha dolzarb. Joriy yilda viloyatdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarida 54 ta, boshqa hududlarda esa 158 ta ko'p qavatli uylar qurilishi kutilmoqda.

"Qurilishga tayyor yer" tizimini joriy etish orqali loyihalarni boshlash muddatini 120 kundan 30 kungacha qisqartirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Jalaquduqda ushbu yangi tizim asosida zamonaviy uy-joylar qurish bo'yicha tajriba boshlanadi.

Viloyatda 11 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, 94 mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda, 56 ta texnikumda 46 ming nafar o'quvchi kasblarga o'rgatilmoqda. Oliygo'hlardagi ilmiy salohiyatini oshirish, dual ta'lim qamrovini kengaytirish choralari belgilab olindi.

Tibbiyot texnikumlariga til o'rgatish bo'yicha ilg'or xususiy ta'lim tashkilotlarini jalb qilib, yiliga 4 mingdan ziyod yoshlarning Yevropa davlatlarida ishga joylashishiga ko'maklashish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy reestrga kirmagan oilalarning iqtidorli farzandlariga ham sport, madaniyat va san'at sohasidagi tashabbuslari uchun "Yoshlar daftri" jamg'armasidan 41 million so'mgacha subsidiya berish taklif qilindi. Prezidentimiz ushbu tartibni Andijon viloyatidan boshlashni topshirdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilish yakunida belgilangan vazifalar ijrosi Andijon aholisi hayotida aniq va sezilarli natija berishi shartligini ta'kidlab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

Uchrashuv

QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI IJOBIY BAHOLANDI

Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva YEXHTning odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakili va koordinatori Keri Jonston boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot chog'ida odam savdosining oldini olish, jabrlanganlarni himoya qilish va munosib mehnat tamoyillarini ta'minlash sohasida YEXHT bilan hamkorlik masalalari muhokama etildi. Ikki tomonlama mustahkam aloqalar ijobiy natijalar berayotganiga alohida e'tibor qaratildi. Odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlash va himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani bildirildi.



JORIY YILDA:

tergov sudyalariga sanksiya va majburlov choralarini o'zgartirish hamda bekor qilish vakolatlari beriladi;

odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va roli oshiriladi;

ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan "xalq vakillari hay'ati" instituti jinoyat protsessiga bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Bunda o'ta og'ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo'layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko'rib chiqiladi va bu sud hukmining yanada adolatlil bo'lishiga xizmat qiladi.

FAKT VA RAQAMLAR

Shuningdek, majburiy ijro jarayoniga samarali muqobil mexanizmlar kiritiladi va natijada sohaga sun'iy intellekt joriy etilib, kelgusi ikki yilda ijro harakatlarining 30 foizi inson omilisiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI IJOBIY BAHOLANDI

Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini taʼminlash, odam savdosiga qarshi kurashish va jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida urgʻu berildi. Bu yoʻnalishda “Inson qadri uchun” tamoyili asosiy ustuvor mezon ekani qayd etildi.

Keri Jonston Oʻzbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish yoʻnalishida olib borilayotgan tizimli islohotlar va qonunchilikni takomillashtirish choralari ijobiy baholadi. U milliy mexanizmlarni xalqaro standartlar bilan uygʻunlashtirish, jabrlanuvchilarga yoʻnaltirilgan yondashuvni kuchaytirish va profilaktika ishlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidladi.

Raqamli platformalar orqali sodir etilayotgan yollash va aldash holatlariga qarshi kurashish boʻyicha hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Suhbat davomida Toshkent shahrida oʻtkazilayotgan odam savdosiga qarshi kurashishda texnologiyalardan foydalanishga bagʻishlangan xalqaro treningning ahamiyati, unda koʻtarilgan dolzarb masalalar hamda ilgari surilgan tashabbuslarni Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari boʻyicha milliy komissiya qayd etildi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

IMTIYOZ VA DAVLAT DASTURLARI IJROSIDA YAGONA HUQUQIY AMALIYOT TAʼMINLANADI



Taʼkidlanganidek, fuqarolar oʻrtasida yuzaga keladigan nizoli holatlarning oldini olish maqsadida ayrim shartnomaviy munosabatlar ishtirokchilarining masʼuliyatini oshirish choralari koʻrish, maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi qonunchilikning tamoyillari toʻla-toʻkis roʻyobga chiqarilishini taʼminlash maqsadida maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni yuritishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlarni belgilash, shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirish zarurati tugʻilmoqda.

Mazkur qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga

odometr (avtomashinaning qancha yurganligini koʻrsatuvchi) uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilgani yoki almashtirilgani toʻgʻrisida xaridorni avtotransport vositasini realizatsiya qilishdan oldin xabardor etmaganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda. Shuningdek, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni koʻrishda pedagog yoki psixologning qatnashishiga doir talablar, maxsus huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish haqida iltimosnoma kiritishning yangi tartibi nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi isteʼmolchilar huquqlari kafolatlarini taʼminlashga, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoyalashga, sud ishlarini koʻrishda ularning ruhiy va psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlanishiga xizmat qilishi senatorlar tomonidan qayd etildi. Shuningdek, majlisda “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tuzilmasi hamda davlat fuqarolik xizmati tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ham muhokama qilindi.

Senat qoʻmitasida

Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasining majlisi boʻlib oʻtdi. Unda dastlab “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun koʻrib chiqildi.

Qayd etilishicha, ushbu qonunga muvofiq endilikda davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilinayotgan kadrlar bilan mehnat shartnomalari dastlab bir yil muddatga tuzilishi va faqat ijobiy natijalar asosida uzaytirilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilari uchun majburiy malaka oshirish kurslari joriy etilib, prokuratura, bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining boshqaruv lavozimlariga oʻtishida ularning ijtimoiy kafolatlari va kadrlar zaxirasidagi oʻrni saqlab qolinadi.

Qolaversa, qonun bilan yoshlarga oid siyosatga huquqiy aniqlik kiritilib, 14 yoshga toʻlgan va 30 yoshdan oshmagan (31 yoshga toʻlmagan) shaxslar hamda yosh oilalarning maqomi belgilanmoqda.

Bu kabi oʻzgarishlar normativ hujjatlarni turlicha talqin qilishga chek qoʻyib, imtiyoz va davlat dasturlari ijrosida yagona huquqiy amaliyotni taʼminlashi alohida taʼkidlandi.

Yakunda qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Tadbir

ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Kecha Toshkent shahrida “Oʻzbekistonda texnologiyalardan foydalangan holda odam savdosiga qarshi kurashish” mavzuida murabbiylar uchun seminar-trening oʻz ishini boshladi.

Tadbir Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari boʻyicha milliy komissiya tomonidan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) bilan birgalikda tashkil etildi.

Unda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi, milliy komissiya aʼzosi



Alisher Aʼzamxoʻjayev, YEXHTning odam savdosiga qarshi kurashish boʻyicha maxsus vakili va koordinatori Keri Jonston, YEXHTning Oʻzbekistondagi loyihalar koordinatori Antti Karttunen, Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar, Raqamli texnologiyalar, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirliklari hamda Bolalar ombudsmeni vakillari qatnashmoqda.

Seminar-trening texnologiyalar yordamida odam savdosini barvaqt aniqlash, onlayn tahdidlarni tahlil qilish va amaliyotga yoʻnaltirilgan zamonaviy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Uning ochilishida soʻzga chiqqanlar mazkur turdagi jinoyatlar onlayn muhit, virtual platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilishi hamda keyingi paytlarda bu kabi holatlar ortib borayotganiga eʼtibor qaratdi.

Taʼkidlanganidek, xalqaro majlasi, iqtisodiy beqarorlik va majburiy migratsiya jarayonlari odam savdosi xavfini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ayollar, bolalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari ushbu jinoyatning asosiy nishonlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Trening dasturi doirasida odam savdosining turli bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, darknet va raqamli moliyaviy instrumentlar bilan bogʻliq xatarlar, xavfi yuqori boʻlgan onlayn platformalarni aniqlash hamda xaritalash, bolalarga nisbatan onlayn ekspluatatsiya holatlarini tergov qilish masalalari boʻyicha mashgʻulotlar tashkil etildi.

Mashgʻulotlar interfaol formatda, amaliy keyslar va simulyatsion mashqlar asosida olib borilmoqda. Shuningdek, murabbiylar tayyorlash formatida oʻqitish metodikalari, modullarni taʼlim jarayoniga integratsiya qilish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar boʻyicha ham alohida sessiyalar oʻtkazildi.

“Xalq soʻzi”.

“Toshkent tajribasi”:

LOYIHA IJROSI KOʻZDAN KECHIRILDI

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi aʼzosi Gulnora Maʼrufova Yangiyoʻl tumanida boʻlib, mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda hududda jamoat xavfsizligini taʼminlash hamda “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Senator va hayot

Dastlab idoralararo muvofiqlashtirish shubhi faoliyati koʻzdan kechirildi. Tuman hududida xavfsiz muhitni taʼminlash, muammolarni manzilli hal etish va profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish boʻyicha yoʻlga qoʻyilgan mexanizmlar yuzasidan axborot berildi.

Shuningdek, senator tumandagi 332-umumtaʼlim maktabida ham boʻldi. Mazkur taʼlim muassasasida amalga oshirilayotgan “Toshkent tajribasi” loyihasi doirasida yaratilgan sharoitlar, ixtisoslashtirilgan sinflardagi oʻquv jarayonlari va qoʻshimcha imkoniyatlar koʻzdan kechirildi.

Aniqlanishicha, maktabga loyiha asosida iqtidorli oʻquvchilar saralab

olinib, ular uchun ixtisoslashtirilgan yoʻnalishlar boʻyicha chuqurlashtirilgan mashgʻulotlar olib borilmoqda. Taʼlim dargohi qoshida tashkil qilingan “Junior Robotics” toʻgaragi faoliyati eʼtirof etildi. Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan robototexnika xonasida oʻquvchilar uchun nazariy va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazilayotir.

Oʻrganish doirasida mahalla faollari, ota-onalar va maktab pedagogik jamoasi bilan uchrashuv oʻtkazilib, hududda bajarilayotgan ishlar, aholini qiynayotgan masalalar hamda taʼlim sifatini yanada oshirish boʻyicha taklif va mulohazalar tinglandi.

“Xalq soʻzi”.

HUQUQBUZARLIKLARNING SABABLARINI ANIQLASH MUHIM

Bugungi global tahdidlar, jadal urbanizatsiya, raqamlashuv va ijtimoiy munosabatlar murakkablashayotgan bir sharoitda jamoat xavfsizligini taʼminlash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, poytaxtimizda xavfsiz muhitni shakllantirish nafaqat shahar aholisi, balki butun respublika uchun namuna boʻlishi lozim.

Oʻrganish

Prezidentimiz raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish, jamoat xavfsizligini samarali taʼminlash boʻyicha namunaviy amaliyotni yaratish yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha ustuvor vazifalar belgilab berilgandi.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi aʼzolari Toshkent shahrining Mirzo Ulugʻbek tumanidagi qator mahallalarda boʻlib, xavfsiz muhitni taʼminlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni tahlil qildi.

Xususan, mahallalarda jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhitni taʼminlash, fuqarolar hayoti, sogʻligi va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish masalalari oʻrganildi.

Oʻrganishlar davomida mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsiz fuqarolar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir qilinadigan jinoyatlarning oldini olishda “mahalla yettilligi” aʼzolarining aniq masʼuliyatini belgilash, profilaktika ishlariga yangicha ish uslublarini joriy etish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Shahnoza JOLDASOVA,
qoʻmita aʼzosi:
– Davlatimiz rahbari yoshlar va ayollarning oiladagi nizolardan kelib

chiqadigan jinoyatlari masalasiga urgʻu qaratib, ularning oldini olish boʻyicha muhim vazifalarni belgilab bergandi. Shu nuqtayi nazardan, biz, deputatlar oʻrganishlar davomida ayollar va yoshlar masalasini tahlil qilishga alohida eʼtibor qaratdik. Mazkur jarayonda ularga qanday yordam koʻrsatishimiz, qonunchilikka yoshlar va xotin-qizlar manfaatlarini taʼminlashga oid qanday oʻzgartirish kiritishimiz kerakligi haqida mahalla faollari, profilaktika inspektorlari bilan fikrlashdik. Yaʼni qonuniy yechim topish masalasi koʻtarildi va bu boʻyicha qator takliflar ham bildirildi.

Deputatlar tuman ichki ishlar boʻlimida ham boʻlib, u yerda navbatchilik qismida murojaatlarni qabul qilish holati, tumandagi kameralarning integratsiya darajasini oʻrgandi.

Maʼlumki, har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy boʻgʻin – mahalla profilaktikasiga sanaladi. Mamlakatimiz rahbari videoselektor yigʻilishida poytaxtimizdagi profilaktika xizmatlarining ishi toʻgʻri tashkil etilmagani uchun muammolar toʻplanib qolganini aytib, profilaktika inspektorlarini yanada qoʻllab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi obroʻsini oshirish boʻyicha qator tashabbuslarni ilgari surgandi.

Qoʻmita aʼzolari huquq-tartibot maskanlarida profilaktika inspektorlari bilan uchrashib, ularning xizmat

faoliyatini toʻlaqonli amalga oshirishga toʻsqinlik qilayotgan muammolarni muhokama etdi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish kabi masalalarga ham alohida eʼtibor qaratildi.

Shu bilan birga, huquqbuzarlik yoki jinoyat yuz berishiga sabab boʻlayotgan yoki unga sharoit yaratayotgan omillar, jinoyatlarni yashirish va jinoyat ishini qoʻzgʻatishni noqonuniy rad etishning oldini olish masalalari tahlil qilindi.

Gulshana XUDOYOROVA,
qoʻmita aʼzosi:
– Oʻrganishlarimiz davomida xavfsiz muhitni yaratish, jamoat xavfsizligini samarali taʼminlashda eʼtibor qaratilishi zarur boʻlgan ayrim masalalar borligi yaqqol koʻrindi. Nafaqat muammolar, balki bu borada qonunchilikka takliflar ham koʻtarilmoqda. Shu bois masalalarni oʻrganish barobarida, tegishli qonunlarga oʻzgartirish kiritish boʻyicha ham takliflarni tahlil qilaymiz. Albatta, bu xavfsiz hududni roʻyobga chiqarish, mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga keng imkoniyat yaratadi.

Oʻrganishlar davomida bildirilgan takliflar asosida amaldagi qator qonunlarni zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish, ortiqcha byurokratik yuklamaga aylangan normalarni qayta koʻrib chiqish, amaliyotdan kelib chiqib isloh qilish zarurligi taʼkidlandi. Ilgari surilgan takliflar kelgusida amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirishda inobatga olinishi aytib oʻtildi.

Deputatlarning oʻrganishlari davom etmoqda.

“Xalq soʻzi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



OV QILISH VA OVCHILIK XOʻJALIKLARI FAOLIYATIDAGI OʻZGARISHLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi tomonidan mamlakatimizda ov bilan shugʻullanish va ovchilik xoʻjaliklari faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan seminar tashkil etildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda ov qilish va ovchilar tayyorlash tartibini tizimlashtirish, sohaga ilgʻor texnologiyalarni tatbiq etish, ovchilik xoʻjaliklarida bioxilmaxillikni koʻpaytirish va ov turizmi infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha qator ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining “Respublikada ov qilish va ovchilik xoʻjaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonidan kelib chiqib, ovchilarning bilim va koʻnikmalarini oshirish borasida oʻqishlarni tashkil etish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, jumladan, oʻqish hamda ovchilik guvohnomalarini olish jarayonlari raqamlashtirildi.

Seminar doirasida sohaga tatbiq etilayotgan elektron platformaning imkoniyatlari haqida ham maʼlumotlar berildi. Shuningdek, yaqinda Qonunchilik palatasida birinchi oʻqishda qabul qilingan – ov jarayonlarini aniq tartibga solish, ovchilik xoʻjaliklari faoliyatini tizimlashtirish,

yovvoyi hayvonlarni muhofazalash va ularning tabiiy koʻpayishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihasidagi normalar ham atroflicha muhokama etildi.

Qonun loyihasida ov qilish jarayonlari shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan normalar aks etayotgani taʼkidlandi. Xususan, ovchilik yoʻllanmalari (yovvoyi hayvonlarni tutish kartochkalari)ni berish maxsus elektron dastur orqali uddalanishi, ular asosida mavsumiy yoki bir martalik ovni amalga oshirish huquqi taqdim qilinishi nazarda tutilayotgani qayd etildi.

Seminar doirasida hayvonot dunyosini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ovchilik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan fikr-munosabatlar bildirilib, qonun loyihasini takomillashtirish boʻyicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAQSADLI INDIKATORLAR TAHLILI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasining yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining respublika byudjetidan ajratilgan mablagʻlardan foydalanish hamda rivojlantirish dasturlari maqsadli indikatorlarining 2025-yildagi ijrosi toʻgʻrisidagi hisoboti eshitildi.

Vazirlik axborotiga koʻra, hisobot davrida ajratilgan mablagʻlar doirasida foydali qazilmalar zaxira va resurslarini koʻpaytirish boʻyicha muayyan ishlar qilingan. Shuningdek, qoʻrgʻoshin, rux, volfram, uglevodorodlar resurslari, yer osti suvlari zaxiralari koʻpaytirish maqsadli koʻrsatkichlari ham samarali bajarilgan.

Geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish orqali respublikaning mineral xomashyo bazasini barqaror rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish va foydali qazilmalarning yangi konlarini aniqlash borasida ham muayyan ishlar olib borilgan. Xususan, 2025-yilgi davlat dasturi doirasida 33 ta yangi kon ochilgan.

Muhokama chogʻida deputatlar vazirlik tomonidan maqsadli indikatorlarga erishishdagi ijobiy natijalarni alohida qayd etdi. Shu bilan birga, vazirlik hisobotida ayrim kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan masalalar ham borligi aytili.

Jumladan, vazirlik uchun belgilangan maqsadlarning muddatdan kech bajarilgani, investitsiya dasturlarining oʻzlashtirilishi kechikayotgani boʻyicha fikr-mulohazalar ilgari surildi. Kelgusida bu borada aniq chora-tadbirlarni koʻrish va masʼuliyat bilan yondashish lozimligi aytili.

“Xalq soʻzi”.

DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI MIRAKBAR HOJIAKBAROVICH RAHMONQULOV

Taniqli davlat va jamoat arbobi, Oliy Majlis Senati aʼzosi, yuridik fanlar doktori, professor Mirakbar Hojiakbarovich Rahmonqulov shu yil 11-fevral kuni 74 yoshida vafot etdi.

Mirakbar Rahmonqulov 1952-yil 5-oktabrda Toshkent shahrida tugʻildi. 1975-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ni huquqshunoslik yoʻnalishi boʻyicha tamomlab, Davlat reja qoʻmitasi huzuridagi iqtisodiyot ilmiy-tekshirish institutida kichik ilmiy xodim sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Keyinchalik Oʻzbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy qoʻmitasi, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi, Oʻzbekiston Oliy Soveti Prezidiumida turli lavozimlarda xizmat qildi.



1992 – 1994-yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining birinchi prorektori vazifasida ishlab, tashqi siyosat sohasida zamonaviy bilimga ega malakali kadrlarni tayyorlash ishlariga katta hissa qoʻshdi.

Mirakbar Rahmonqulov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti direktori oʻrinbosari lavozimlarida faoliyat yuritib, yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha muhim strategik tadqiqotlarga rahbarlik qildi.

Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid davlat dasturlari, konseptual hujjatlar va qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etdi.

Ayni vaqtda salohiyatli olim sifatida mintaqaviy xavfsizlik masalalarini, xorijiy davlatlar bilan koʻ qirrali hamkorlikni rivojlantirish istiqbollariaga bagʻishlangan qator monografiya va ilmiy-uslubiy qoʻllanmalar yaratdi.

Tajribali siyosatchi, faol va tashabbuskor davlat xizmatchisi sifatida M. Rahmonqulov koʻp yillar davomida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik Kengashining kotibi vazifalarida xizmat qildi. 2022-yildan eʼtiboran Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida masʼul vazifalarda ishlab, oʻzining boy tajribasi, chuqur bilim va salohiyati, fidoyilik va vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etdi.

Soʻnggi yillarda u Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va Huquqiy siyosat institutiga rahbarlik qilish bilan birga, Oliy Majlis Senatining aʼzosi sifatida ham samarali faoliyat olib bordi.

Mirakbar Rahmonqulovning davlatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari munosib taqdirlandi. U “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun” va II darajali “Shon-sharaf” ordenlari bilan mukofotlangan edi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yirik huquqshunos olim, yoshlarning mehribon ustози, samimiy va kamtarin inson Mirakbar Rahmonqulovning xotirasi qalblarimizda doimo saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, SH. AYUPOV

TAʼLIM – XALQ FAROVONLIGI VA YUKSALISH KAFOLATI

Bugungi globallashuv davri va keskin raqobat sharoitida har bir davlatning kuch-qudratini, avvalo, uning intellektual salohiyati, aniqrogʻi, tafakkuri teran va zamon bilan hamnafas iqtidorli yoshlari belgilab beradi. Shu bois yurtimizda Yangi Oʻzbekistonni barpo etish hamda uchinchi Renessans poydevorini qurish yoʻlida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar markazida taʼlim-tarbiya sohasi turibdi, desak, ayni haqiqat.

Mushohada

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning keyingi yillarda maʼrifat, taʼlim va ilm-fanni rivojlantirish yoʻlida imzolagan qonun, farmon hamda qarorlari, ilgari surayotgan eʼzgu tashabbuslarining magʻzini chaqqan inson bunga ishonch hosil qiladi. Negaki, davlat rahbari chiqishlarining deyarli har birida ayni shu jihatga eʼtibor qaratar ekan, uning “hayot-mamot masalasi” ekanini alohida taʼkidlab, mazkur sohada sustkashlikka aslo yoʻl qoʻyib boʻlmaglini qatʼiy uqitradi.

Yangi Oʻzbekiston fenomenini taʼsiri

Prezidentimiz 2025-yil yakunida Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasida joriy yilda amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida ham kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish vazifasini qoʻydi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sunʼiy intellekt taʼsirida dunyoda ish oʻrinlarining soni, shakli va mazmuni keskin oʻzgarmogʻda. Prognozlariga qaraganda, yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi toʻliq avtomatlashtirilsa, 50 foizi boʻyicha yangi malakalar talab qilinadi. Mana shu hayot haqiqatidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda farzandlarimizni maktab partasidananoq fanlarni oʻzlashtirish va kasbiy qiziqishga qarab saralab olish tizimi joriy qilinaypti.

Mazkur jarayonda yoshlarning qiziqishi, salohiyati, qobiliyati va layoqatidan kelib chiqqan holda oʻrta taʼlimdan keyingi bosqichiga yoʻnaltiriladi. Bunda kasb-hunar oʻrganish istagidagi yoshlar texnikumlarga yuboriladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tasdiqlangan besh yillik dastur asosida endilikda texnikumlar nafaqat zamonaviy qiyofa kasb etadi, balki ularga yangicha muhit olib kirilib, zamonaviy kasblar oʻrgatiladi. Aniqrugʻi, 2026-yildan boshlab har yili kamida yuztadan texnikum toʻliq taʼmirlanishi, texnologik va talab yuqori boʻlgan kasblarga mos holda ijhozlanishi belgilangan. Ushbu saʼy-harakatlar tufayli AQSH, Italiya, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilgʻor taʼlim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini 100 taga yetkazish maqsad qiligan.

Yaqin-yaqingacha oliy taʼlim tizimi boʻyicha ham maqtana olmaganimiz bor gap. Axir ilgari Oʻzbekiston oliyohlari jahon reytinglarida deyarli qayd etilmagan. Bugun esa ular xalqaro taʼlim makonida barqaror oʻrin egallay boshladi. Xususan, “QS World University Rankings – 2026” reytingiga mamlakatimizdagi 7 ta oliyogʻh kirgani, ulardan 5 tasi ilk marotaba ushbu nufuzli reytingda qayd etilgani, BMTning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida baholalanadigan “Times Higher Education – Impact Ranking” reytingida Oʻzbekistondan 59 ta oliyogʻh ishtirok etib, 12 tasi “TOP – 1000”talikdan oʻrin egallagan fikrimiz isbotidir. Bundan tashqari, Oʻzbekistonning oʻrtta universiteti bitiruvchilarning ish bilan taʼminlanish koʻrsatkichi boʻyicha dunyoda eng yaxshi 700 talik qatoriga kirishi Oʻzbekiston oliy taʼlimining xalqaro mezonlar boʻyicha baholanish, raqobat va eʼtirof bosqichiga qadam qoʻygaganini anglatadi. Pirovardida avvallari yurtimiz farzandlari xorij universitetlarida tahsil olish ishtiyoqida chet el davlatlariga ketishgan boʻlsa, endilikda buning aksini kuzatish mumkin. Yaʼni Oʻzbekistonga oliy taʼlim olish maqsadida kelayotgan yoshlar soni tobora oshib bormogʻda.

Xususan, Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga qaraganda, 2025-yilda jami 39,7 ming nafar chet el fuqarosi oʻqish maqsadida Oʻzbekistonga kelgan. Ushbu koʻrsatkich 2022-yildagiga nisbatan 58,2 foiz oshgani diqqatga sazovor. Oʻqish maqsadida kelgan xorijliklar soni boʻyicha Hindiston yetakchilik qilmogʻda. Undan keyingi oʻrinlarda Turkmaniston va Tojikiston qayd etilgan.

Bundan tashqari, yurtimizda Pokiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Qirgʻiz Respublikasi, Misr, Filippin, AQSH hamda boshqa davlatlardan kelgan yoshlar tahsil oʻlmogʻda. Shubhasiz, bu fakt Yangi Oʻzbekiston fenomenining taʼsiridir.

Yuksak tafakkur –

mustahkam qoʻrgʻon

Inson shaxs sifatida voyaga yetishining yagona kafolati uning tafakkuri, maʼnaviy olami kengligidir. Bizning maʼnan yetuk, jismanon baquvvat boʻlib voyaga yetishimiz oilamiz, mahallamiz va Vatanimizning tinch va farovonligi kafolati sanaladi. Bugun Vatan sarhadlarini qoʻlda qurol bilan emas, yuksak tafakkur bilan qoʻriqlash davri ekanini hammaga ayon haqiqat.

Joriy yilning 13-yanvar kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida oʻtkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yigʻilishida ham taʼlim masalasi tilga olindi. Yoshlar kamoloti, yurt ravnaqi, chegaralar daxsizligida intellektual salohiyatning roli eʼtirof etildi.

Darhaqiqat, zamonaviy kurash sharoitida gʻalaba kaliti jismoniy kuch yoki texnik ustunlikda emas, balki ilmiy bilim va raqamli kompetensiyadadir. Shu nuqtayi nazardan, harbiy taʼlim tizimini modernizatsiya qilishga davlat xavfsizligini taʼminlashning strategik poydevori sifatida qaralmoqda. Taʼlim jarayoniga sunʼiy intellektga asoslangan oʻqitish platformalari, raqamli simulatsiya va zamonaviy baholash tizimlarining joriy etilishi harbiy kadrlarni



qoʻyish qarori harbiylarning fikrlash madaniyati, dunyoqarashi va maʼnaviy barkamoligini oshirishda muhim jihatdir. Zotan, taʼlim rivojiga qaratilgan yangicha yondashuv qisqa muddatli chora emas, balki uzoqni koʻzlagan milliy strategiya sifatida namoyon boʻluyapti.

Barqaror jamiyat asosi

Hazrat Navoiyning “Ilmni kim vositai joh etar, Oʻziniyu xalqni gumroh etar”, degan purmaʼno satrlari bor. Unda ilmu maʼrifat insonni koʻklarga koʻtarsa, ilmsizlik va maʼnaviyatsizlik kishini pastga, chogʻga tortishi haqida gap boradi. Zero, bugun ayrim yoshlarning jinoyat koʻchalariga kirib, giyohvandlik domiga tushib qolishining asl manbai ham ilmsizlikka borib taqaladi. Hadisi sharifda keltirilganidek, “ilm zulmatda quyosh, vahshatda hamroh, yolgʻizlikda yoʻldosh, begona yurtda sirdosh, ogʻir damda rahbar, dushmanga qarshi qurolidir”.

27-yanvar kuni Prezident raisligida boʻlib oʻtgan Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali taʼminlash boʻyicha

“Inson shaxs sifatida voyaga yetishining yagona kafolati uning tafakkuri, maʼnaviy olami kengligidir. Bizning maʼnan yetuk, jismanon baquvvat boʻlib voyaga yetishimiz oilamiz, mahallamiz va Vatanimizning tinch va farovonligi kafolati sanaladi.”

tayyorlash sifatini tubdan oʻzgartiradi. Bu esa ofitser va mutaxassislarni faqat buyruq ijrochisi emas, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan, talhichli va strateg sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv milliy armiyaning intellektual qiyofasini belgilab beradi.

Binobarin, bugungi kunda muddatli harbiy xizmat hamda taʼlim integratsiyasi chuqurlashtirilmoqda. Bundan koʻzlangan maqsad – azamat yigʻilarning jamiyatda oʻz oʻrnini topishi uchun koʻmaklashish. Yaʼni askarlar kasbga tayyorlash boʻyicha 3 – 6 oylik dasturlar asosida oʻqitilib, ularga kasb sertifikatini beriladi. Shuningdek, “Bir million dasturchi” va “Besh million sunʼiy intellekt yetakchisi” dasturlari doirasida har yili saralab olingan 5 ming askar oʻqitiladi.

Yana bir muhim yangilik shuki, askarlarga muddatli harbiy xizmatni oʻtash davrida harbiy qismning oʻzida oliyogʻhda oʻqishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻtib, talabalikka qabul qilingan askarlar esa muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda oʻqishini boshlaydi.

Bundan tashqari, harbiy qismlarni million nusxa badiiy adabiyotlar bilan taʼminlash, kitobxonlik tanlovlarini yoʻlga

namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishida ham huquq-tartibot masalalari bilan bir qatorda, yoshlar tarbiyasi va taʼlimi davlat xavfsizligining eng muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biri ekanini yana bir karra qayd etildi. Davlatimiz rahbari jinoyatchilikka qarshi kurashni faqat jazo choralar bilan emas, balki taʼlim, ilm-maʼrifat va bandlik orqali hal qilish zarurligini alohida taʼkidladi.

Eʼtibor qaratgan boʻlsangiz, bu yerda ham asosiy urgʻu aynan taʼlim, ilm-fanga berilmoqda. Chunki taʼlim inson ongini shakllantiruvchi, jamiyatda huquqiy madaniyat va kasb-uliyaatni hissiy yuksaltiruvchi eng kuchli omil hisoblanadi. Bilimli hamda ongli yosh avlod esa turli salbiy illatlar, jinoyatchilik va zoʻravonlik gʻoyalari qoʻlga qarshi mustahkam immunitetga ega boʻladi.

Davlat rahbarining taʼlim, ilm-fan va innovatsiya masalasiga doimiy eʼtibor qaratishi, aslida, mamlakatning uzoq muddatli strategik manfaatlar koʻzlab yuritilayotgan oqilona siyosat. Yoshlarga berilgan bilim Oʻzbekistonning ertangi taraqqiyoti, raqobatbardosh iqtisodiyoti va barqaror jamiyat asosidir. Zero, taʼlim masalasining doimo kun tartibida boʻlishi bu tasodif emas, balki hayotiy zarurat. Bilimli avlod yurtning eng katta boyligi, eng ishonchli tayanchi va porloq kelajagi kafolati boʻlib xizmat qiladi.

Radikal gʻoyalar, narkotik moddalar, kiberjinoyatchilik va “yengil pul topish” vasvasasi, avvalo, taʼlimdan, maʼnaviy tarbiyadan uzilib qolgan yoshlar orasida tez ildiz otayotgani ham rost. Sintetik narkotiklarning internet orqali tarqalishi, toʻlovlarining kriptovalyutada amalga oshirilishi, yoshlarning virtual jinoyi tuzilmalarga jalb etilishi kabi illatlarga qarshi zamonaviy bilim va raqamli savodxonlikka ega boʻlmagan kadrlarsiz kurashib boʻlmaglini davrning oʻzi ochiq koʻrsatib turibdi.

Shu maʼnoda, huquq-tartibot xodimlarini sunʼiy intellekt va raqamli texnologiyalarga oʻqitish tashabbusi nafaqat tizimni kuchaytirish, balki yoshlar uchun zamonaviy bilimni mutaxassislar korpusini shakllantirishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Bu yerda taʼlim jinoyatchilikka qarshi profilaktikaning eng samarali vositasi sifatida namoyon boʻlmoqda. Zotan, buyuk Sharq faylasufi Konfutsiy

“Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorongʻi tundir” deganini himn karra haq edi. Negaki, bilimsizlik jinoyatdan ham xavfli illat sanaladi. Italiyalik mashhur iqtisodchi-tarixchi Karlo Chippolo buni shunday tushuntiradi: “Bilimsizlar jinoyatchilardan koʻra xavflidir. Jinoyatchilarda maqsad boʻladi, tentaklarda esa yoʻq. Shuning uchun ularning harakatlari oldindan bilish imkonsizdir. Ular sizga hech qanday sababsiz, muddaosiz, rejasiz zarar yetkazadi. Eng kutilmagan joyda, eng noqulay paytda paydo boʻladi”.

Bunday illatga qarshi faqatgina maʼrifatli davlat siyosatini yuritish orqali kurash olib borish mumkin. Kuzatayotgan boʻlsangiz, Yangi Oʻzbekistonda ilm-fan, taʼlim-tarbiya sohasini rivojlantirish orqali uchinchi Renessans quyoshini uygʻotish maqsad qilingan. Bilimli yosh – bu faqat diplom egasi emas, balki mustaqil fikrlaydigan, hayotda toʻgʻri qaror qabul qila oladigan, jamiyat oldidagi masʼuliyatini chuqur his etadigan shaxs. Ilm insonga tanqidiy fikrlashni, voqealarga ongli yondashishni oʻrgatadi. Oʻz maqsadi va hayotiy pozitsiyasiga ega kishini chalgʻitish, aldash yoki notoʻgʻri yoʻlga boshlash juda qiyin. Shu bois taʼlim nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyat xavfsizligining ham muhim kafolatidir. Yangi Oʻzbekistonda taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar ham aynan shu maqsadga qaratilgan.

Bahrom ABDULLAYEV,

Oliy Majlis Senatining

Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Oʻzbekiston va Pokiston:

HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

Prezidentimizning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi nafaqat anʼanaviy doʻstona aloqalarni mustahkamladi, balki hamkorlikni aniq loyiha va tashabbuslar bilan boyitib, uning mazmun-mohiyatini yangi pogʻonaga koʻtardi. Ayniqsa, imzolangan koʻplab bitim va kelishuvlar hamkorlikni faqat siyosiy muloqot bilan cheklab qoʻymay, uni iqtisodiyot, xavfsizlik, ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar sohalariga chuqur taʼtbiq etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa ikki davlat munosabatlari mustahkam huquqiy asosga ega boʻlib borayotganini anglatadi.

Munosabat

Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri yaqin va ishonchli hamkorlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyaviy loyihalarni ragʻbatlantirish hamda xalq farovonligiga xizmat qiladigan tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashdan iborat. Shu maʼnoda, Pokiston bilan munosabatlar alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu davlat Janubiy Osiyo mintaqasidagi yirik bozorlardan biri boʻlib, katta iqtisodiy salohiyatga ega.

Oliy darajadagi muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, sanoat



chuqurlashtirish masalalarini atrofiacha muhokama qilindi. Imzolangan hujjatlar amaliy mazmunga ega boʻlib, real iqtisodiy loyihalarni hayotga taʼtbiq etish, oʻzaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va qoʻshma korxonalar ochishga qaratilgani bilan eʼtiborga molik.

Iqtisodiy hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida Oʻzbekiston – Pokiston Ishbilarmonlik kengashini tashkil

etish toʻgʻrisidagi bitim imzolandi. Bu kengash orqali tadbirkorlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot yoʻliga qoʻyilib, qoʻshma loyihalar shakllantiriladi va investitsiya tashabbuslari amalda roʻyobga chiqadi.

Hududlararo forum oʻtkazish boʻyicha kelishuv esa iqtisodiy faollikni faqat markaz doirasida emas, balki viloyat va shaharlar darajasida ham kengaytirish imkonini beradi. Bu, oʻz navbatida, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Imtiyozli savdo toʻgʻrisidagi bitimga yangi tovar pozitsiyalarining kirilishi tashqi savdoni diversifikatsiyalash yoʻlidagi muhim qadam boʻldi. Mazkur qoror milliy ishlab chiqaruvchilar uchun Pokiston bozoriga chiqishni yengillashtirib, eksport hajmini oshiradi. Port xizmatlari boʻyicha chegimlar taqdim etish yuzasidan erishilgan kelishuvlar esa logistika xarajatlarni qisqartirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Qishloq xoʻjaligi sohasida imzolangan ikki tomonlama bitimlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga

ega. Agrar ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiya va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar almashinuvini kuchaytirish orqali mahsulot hosildorligi oshadi, fermer xoʻjaliklarining daromad manbalari kengayadi.

Oʻzbekistondan Pokistonga yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksporti boʻyicha fitosanitariya talablarining kelishib olinishi qishloq joylardagi aholi uchun barqaror bozor va kafolatlangan sotuv imkoniyatlarini yaratadi.

Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasidagi munosabatlar alohida tashabbuslar majmuasidan barqaror, koʻp qirrali va uzoq muddatli strategik sheriklikka aylanib bormogʻda. Prezidentimizning ushbu mamlakatga davlat tashrifi oʻzaro ishonchli hamkorlikni yanada mustahkamlab, xalqimiz manfaatlariga, yurtimizning iqtisodiy taraqqiyoti va uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maʼrufjon RAHMONOV,

Oliy Majlis

Qonunchilik palatasi deputati.

MAQSAD – SERTIFIKAT OLISH EMAS, NATIJA KOʻRSATISH

Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazida Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda Qishloq xoʻjaligi vazirligi hamkorligida tuman (shahar) hokimlarining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosarlarining bilim hamda koʻnikmalarini oshirishga qaratilgan oʻquv-amaliy seminarlar oʻtkazilmoqda.

Seminar

Eʼtiborli jihat shundaki, olti bosqichda, qariyb bir yarim oy davom etadigan mazkur tadbirga jiddiy tayyorgarlik koʻrildi. Chunki bir haftalik oʻquv seminarida qatnashadigan kishilar qoʻliga sertifikat olish bilan cheklanib qolmaydi, balki ulardan ertaga natija talab qilinadi.

Yangiyoʻl tumanida joylashgan “Prometagro” naslchilik xoʻjaligida va “Xarrot fish xaus” xususiy korxonasida qoʻllangan zamonaviy texnologiyalar tadbir ishtirokchilarini qiziqitirib qoʻydi. Negaki, chorva naslini yaxshilash, yuqori mahsuldorlikka erishish, balchiqlik yoʻnalishida innovatsion tamoyillarga tayanish – bu shunchaki tomosha qiladigan ish

emas. Ushbu xoʻjaliklarda ish ilmi-fan asosida tashkil etilgani tufayli tadbirkor ikki-uch karra koʻproq daromad topmogʻda.

Hokim oʻrinbosarlari milliy markaz tizimidagi institutlarning tajriba maydonlarida ham boʻlishdi va ilmiy natijalar koʻlami bilan tanishdi.

Bu yerda bir-biridan qiziqarli yangiliklarga duch keldik va buni koʻrish kamlik qiladi, qoʻllash kerak, targʻibotini kuchaytirish lozim degan xulosaga keldim, – deydi Qonlikoʻl tumani hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari Babanazar Toreshov. – Olimlar bizni yaqin

hamkor boʻlishga daʼvat etgani ham meni quvontirdi.

Tadbinning uchinchi haftasi boshlangan kun Koreya Respublikasidagi nufuzli ilmiy dargoh – Vankvong universiteti rahbari Pak Song Te Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziga keldi va uning direktori oʻrinbosari Oybek Omonov bilan uchrashuv oʻtkazdi. Muloqot chogʻida tomonlar qoʻshma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, professor-oʻqituvchilar va tadqiqotchilar almashinuvini yoʻlga qoʻyish boʻyicha oʻzaro fikrlashdi. Tashkil etilgan oʻquv seminari xorijlik mehmon eʼtiborini

ham tortdi va u nafaqat siyosiy jabhada, balki ilm-fan, innovatsiya borasida ham Oʻzbekistonda yangi tashabbuslar boʻy koʻrsatayotganini eʼtirof etdi.

Muloqot yakunida Markazga qarashli Qishloq xoʻjaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan Vankvong (Wongkwang) universiteti oʻrtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Unga koʻra, oʻzbekistonlik mutaxassislar Koreya Respublikasidagi oʻquv kurslari va ilmiy dasturlarda qatnashadi.

Abdunabi ALIQULOV

(“Xalq soʻzi”).



hamkorlik boʻyicha kelishuv xati imzolandi.

Maʼlum boʻlishicha, ushbu istiqbolli loyiha Buxoro viloyati hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi jami 200 gektar choʻl va shoʻrlangan yerlarda amalga oshiriladi. U qishloq joylarda kambagʻallikni qisqartirishda asqatadi. Chunki bu oʻsimlikdan qoʻziqorin uchun substrakt tayyorlash, pirovardida koʻplab tirdagi qoʻziqorin yetishtirish mumkin. Undan ekologik toza mahsulotlar – bir martalik tarelka, qoshiq, stakan va hatto qurilish materiallari ishlab chiqarsa boʻladi. Qolaversa, u yer tarkibidagi tuz miqdorini kamaytiradi, tuproq yemirilishiga gʻov boʻladi. Binobarin, choʻllarni koʻkalamzorlashtirish orqali chang-shamolalar, qum boʻronlari yoʻliga ishonchli toʻsiq yaratish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida ilk bor qoʻllaniladigan bu texnologiya jarayonida mahalliy mutaxassislarning junsao oʻsimligini yetishtirish borasidagi bilimlarini oshirish, ularda maʼlum bir koʻnikmalarni hosil qilish ham koʻzda tutilgan.

Istam IBROHIMOV

(“Xalq soʻzi”).

Joriy yilda Navoiy viloyatiga 4,2 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilib, eksport hajmini 1,5 mlrd. dollarga yetkazish koʻzda tutilgan.

